

“IKKI ESHIK ORASI” ASARIDA BADIY TIL VA IJODKOR USLUBI

Duysenbayev Olimjon

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Qoraqalpoq davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Ikki eshik orasi” asaridagi badiiy nutq va yozuvchi badiiy mahorati masalasi tahlil qilingan. Ijodkor uslubing individual xususiyatlari badiiy til va ijodkor uslubi uyg'unlashuvida va tarixiy obrazlarning mukammal badiiy qiyofa kasb etishida namoyon bo'lishi ochib berilgan.

Kalit so'zlar. O'tkir Hoshimov, “Ikki eshik orasi”, tarixiylik, badiiylik, mahorat, uslub, ijodkor, badiiy til, nutq.

O'z-o'zidan ayonki, ijodkor uslubi, shakliy izlanishlar ko'lami va badiiy asar poetikasini belgilab beradigan muhim omillardan biridir. Unda ekspressiv tasvir izchilligi va hissiy mushohada bosimi dialektik aloqadorlik kasb etadi hamda ijodkor ifoda yo'sinini shakllantiradi. To'g'rirog'i, adib dilida yashirin orzu-istak, niyat dinamikasi og'zaki nutqda epistolyar xarakterga ega bo'ladi. Bu usul bir tomondan, san'atkor shaxsiyati va ob'ektiv voqelikning bir-biriga nisbatan daxlsizligini ta'minlasa, ikkinchi tomondan, obraz ruhiyati va tabiatini ochishning eng oson yo'li hisoblanadi. Jumladan, O'.Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” va “Ikki eshik orasi” romanlarida qiyosiy-tipologik va analogik sistematik xarakter uyg'unligiga asoslanilsa-da, nutq egasi hamda muallif talqinlarining hayotiyliigi, badiiy dalillanganligini tasdiqlaydi.

“Hozirgi o'zbek adabiyotida yaratilayotgan nasriy asarlarda qahramonlarning monologlari ichki (ovojsiz) va tashqi (ovozli), hajman katta yoki kichik bo'lishi mumkin. Odatda qahramonlarning ichki monologi asarda ro'y berayotgan g'oyat kuchli dramatik hodisalar ta'sirida murakkab vaziyatga tushib qolgan insonning ruhiy olamini chuqur tahlil etishga yordam beradi. Tashqi monolog esa asar voqealarini rivojlantirishga, bo'lib o'tgan yoki ayni chog'da bo'layotgan hodisaga munosabatini belgilashga, atrof-muhitni va odamlarni baholashga xizmat qiladi”⁷⁹. To'g'ri, har bir badiiy asarda qo'llanilgan usul ijodiy niyatning originalligi va tasvir shaklining polifonik xarakterini belgilab beradi. Fikr rivoji shiddati, ziddiyatlarning rang-barangligi qahramon xarakteri va holatini uyg'unlashtirish uslubiy tuzilmaning xilma-xilligini ta'minlaydi. Asosan monologik ong ifoda yo'sinini shakllantirib, voqealarning mantig'ini rivojlantiradigan estetik tayanch

⁷⁹Солижонов Й. XX асрнинг 80-90 йиллари ўзбек насрида бадий нутқ поэтикаси. Филол. фанлари д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 2002. – Б. 20-21.

nuqtasi hisoblanadi.

O'tkir Hoshimov umumiy g'oyaga bog'langan voqealar tizimini rivojlantiradigan manzara, holat, situatsiya, tafsilotlarning xarakterli jihatlarini tanlaydi hamda hayotiy materialga aylantiradi. Shu tariqa badiiy ong ijodning estetik markaz nuqtalarini birlashtiradi. Muallifning qator roman, qissa va hikoyalarda nutqiy polifonizm hodisasi quyidagi qirralarda namoyon bo'ladi:

- nutqiy malaka jonli, hayotiy aloqalarni aniqlashtirib, real muhitni estetik nuqtai nazardan baholashga yordam beradi;

- nutq turkumlari va guruhlanishi asar ijodiy yaxlitligini ta'minlaydigan muhim omillardan biri bo'lib, psixologik ziddiyatlar falsafiy umumlashmada ayonlashadigan "g'oyaviy yuk"ni gavdalantiradi;

- monolog va dialoglar hayotning mazmunini hayotiy shakllarda ifodalashning samarali vositasidir. Negaki, muallif talqini qahramon bayonida soddalikka, tabiiylikka, jonlilikka erishadi;

- nutqiy material xarakter mohiyatini izohlash, muayyan g'oyani talqin etish, ong, saviya murakkablashishi jarayonini tavsiflash singari vazifalarni bajaradi;

- nasrda polifonizm hodisasi ko'p qatlamlilik, teng huquqlilik hamda ovoz rang-barangligini bildiradi.

O'tkir Hoshimov nasrida ona obrazi badiiy evolyusiyasi polifonik xarakterdagi ichki tizimni tashkil etadi. Binobarin, "Dunyoning ishlari"da Poshsha xola obrazi dinamikasida o'zbek ayollariga xos bir necha xarakterli chiziqlar ko'zga tashlanadi. Yozuvchining muvaffaqiyati qator qahramonlarga asos bo'ladigan tasnifiy belgilarni bir qiyofaga singdirganligi orqali namoyon bo'ladi. Agar adib "Ikki eshik orasi" romanida ayol siymosini Qora amma, Xolposh xola, Robiya, Ra'no, Bashorat, Fotima, Zuhra kabi kasb-hunar, dunyoqarash, tashqi ko'rinish misolida umumlashtirsa, qissada yagona xarakter tadriji muhim vazifaviy ahamiyat kasb etadi.

"Nonni uzyapmanu, nuqul Kimsan bilan gaplashaman. Mana, bolam, hammasi taomildagidek bo'lyapti. Voy, bola-ya, ko'paygur-a! Ko'nglingda-ku shu niyat bor ekan, ketayotganingda bir og'iz aytmaysanmi? "Shunaqa, shunaqa, oyi, meni ko'nglim Robiyada" demaysanmi? Allaqachon boshini bog'lab qo'ymaymizmi? Robiyayam qiziq. Begona emas-ku! "Oyijon, Kimsan akam bilan ahdu paymonimiz bor" desa-ku, olam guliston!

Peshinga yaqin Oqsoqolnikidan to'y keldi. Yarim qop guruch, bir chirpit yog', bir qop un. Sedana sepilgan holva, mayiz, kallaqand... Gilam puliga kelgan yog' bilan guruchni Oqsoqolnikiga cholimni o'zi olib borib beruvdi. Holva, mayizlar qayoqdan paydo bo'ldi?

Oqsoqol bilan ovsinimning ishi-da!”⁸⁰

Qora amma nutqidan keltirilgan parchada qahramonning xayoliy muloqoti ona timsolining bir qirrasini ochib beradi. Unga muvofiq o‘zbek mentalitetiga xos xususiyatlardan biri ayolning bolajonligidir. Hatto burch va ma’suliyatni anglab yetmagan, hayotning jiddiy sinovlariga bardosh bera olmagan Ra’no ham farzandga bo‘lgan e’tiqodda sobit. Qahramon hayotining eng ayanchli manzaralari ham o‘g‘li Muzaffar bilan bog‘lanib ketadi.

Yuqorida keltirilgan iqtibosda milliy ma’naviyatga xos tolerantlik bo‘rtib ko‘rinadi. Bevosita Kimsan va Robiyaning baxt-saodati uchun qayg‘uradigan onaning ulug‘vorligi, ma’naviy barkamolligi nutqiy ifodada namoyon bo‘ladi. Ayol monologida, garchand ibtidoiy shamoyilda bo‘lsa-da, e’tiqod butunligi, jamiyat ehtiyoji va estetik ideal mushtarakligi mavjud. Bu hamohanglikda shaxsiy kuzatuv ustuvorligi aniq hissiy-estetik shaklni ifodalaydi. Qora amma tasavvuridagi sokinlik uning voqealar borishidan roziligini anglatadi. Shu tariqa onaga xos tavsifiy omillar nisbiy polifonik ifodaga yo‘naltirilib, ma’naviy takomilni idrok etishning umumiy suvratini chizadi. Qahramonning tiynati chegaralangan his-tuyg‘u ko‘lami yordamida ochiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Солижонов Й. XX асрнинг 80-90 йиллари ўзбек насрида бадиий нутқ поэтикаси. Филол. фанлари д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 2002. – Б. 20-21.
2. Ҳошимов Ў. Икки эшик ораси. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 156.
3. Имомова Г.М. Типик миллий характерлар яратишда бадиий нутқнинг роли: Филол. фанлари номзоди... дисс. – Тошкент, 1994. – 135 б.
4. Imomkarimova M. O‘.Hoshimov asarlarida milliy qadriyatlar talqini: Filol. fanlari nomzodi... diss. – Toshkent, 2004. – 152 b.

⁸⁰ Ҳошимов Ў. Икки эшик ораси. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 156.